

ShE'RIY NUTQDA TASDIQ VA INKOR KATEGORIYASI
Matyakupov Sa'dulla Gaypovich – filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
sadulla.yoqub@gmail.com
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

КАТЕГОРИЯ УТВЕРЖДЕНИЯ И ОТРИЦАНИЯ В ПОЭЗИИ
Матякупов Саъдулла Гайпович – доктор филологических наук (DSc), доцент
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

THE CATEGORY OF AFFIRMATION AND NEGATION IN POETIC SPEECH
Matyakupov Sa'dulla Gaypovich – Doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: she'riy nutq, dialog, monolog, dunyoqarash, badiiy kommunikatsiya.

Rezyume. Maqolada she'riy nutqda muloqot shakllari va ularda tasdiq va inkor kategoriyalari munosabati o'rganiladi. Mazkur holatning namoyon bo'lishi, nazariy asoslari va uning poetik strukturaga ta'siri muammosi tadqiq etiladi. Ayni hodisaning jahon hamda o'zbek she'riyatida aks etishi yuzasidan ilmiy-nazariy tahlillar natijasi umumlashtiriladi.

Ключевые слова: поэтическая речь, диалог, монолог, мировоззрение, художественная коммуникация.

Резюме. В статье исследуются формы диалога в поэтической речи и взаимосвязь между категориями утверждения и отрицания в них. Рассматривается проблема проявления этого явления, его теоретические основы и влияние на поэтическую структуру. Обобщены результаты научно-теоретического анализа отражения этого явления в мировой и узбекской поэзии.

Key words: poetic speech, dialogue, monologue, worldview, artistic communication.

Summary. This article explores the forms of dialogue in poetic speech and the relationship between the categories of affirmation and negation within them. The article examines the manifestations of this phenomenon, its theoretical foundations, and its influence on poetic structure. The results of a scientific and theoretical analysis of this phenomenon's reflection in world and Uzbek poetry are summarized.

Kirish. Badiiy munosabatda muammo hamda g'oya, shakl va mazmun, tahlil, talqin tugallik kasb etsagina matn poetik kuchga aylanadi. Unda muallif ifoda va tasvirni tenglashtirgan holda hayotiy ziddiyatlar falsafiy teranligini vujudga keltiradi. Zero, ijodkor adabiy talqini murojaat-ta'kid birikuviga zamin hozirlaydi. So'z, ma'no va tushuncha yaxlitligi jarayonida esa badiiy tafakkur dialoglashadi. Shuningdek, monologda yaxlit ma'no, har bir ma'no qirrasida esa go'zal ohang, yorqin rang va ruhiy tarovat ustuvorlik kasb etadi. Aynan tasavvurni tasvirga yo'naltirish va aks ettirishbadiiy matn mohiyatini oydinlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. She'riy idrokda dialog muayyan poetik tushuncha mohiyatini aks ettiruvchi asosiy estetik vosita sifatida badiiy kommunikatsiya ya'ni so'z – g'oya – matn mohiyatini anglash uchun tayanch vazifasini o'taydi. Undagi munosabat va badiiy talqin lirik ifoda tabiatini belgilagan holda unda muallif, qahramon, tasavvur va taassurot bir-biriga uyg'unlashadi. Shu bois "buyuk rus munaqqidi M.Baxtin hayotda ham ijodda ham monolog va dialogni keskin tafovutlamaydi. Insonlararo mavjud muloqot shakllari, tanqidchi ta'biricha shartli tarzda namoyon bo'ladi" [3:74]. She'rda tuyg'uning moddiylashuvi, olamni idrok etish jarayoni hamda falsafiy mushohada yaxlitligi masalani oydinlashtiradi. Tasvir subyekti tahlil va talqin muvofiqligi ushbu munozarani tavsiflaydi. Shu ma'noda she'riyatda dialog, bir tomondan, ijodkor maqsad-muddaosini tayin etadigan tizim shaklida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, shoir badiiy aloqa usullarini shakllantiradigan vosita vazifasini o'taydi. Mazkur ikki nutqni bir-biridan ayirgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Negaki, lirika tasvir ruhiyati talablariga tayanadi. Tasavvurda tahlil va idrok uyg'unligi masala mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Dialog badiiy matn tahlilida tayanch markaz vazifasini bajaradi. Ifoda mustaqilligini ta'minlaydigan va tasvir ruhiyatini belgilaydigan nutq shakli axborotni uzatish – qabul qilish jarayonini mujassamlashtiradi. Rus olimi V.I.Tyupa poetik kommunikatsiya hodisasini quyidagi omillarga bog'laydi: olam manzarasi, nuqtayi nazar, ovoz va kommunikativ strategiya [10:312-324]. Ta'kidlash kerakki, tushunchalararo aloqani ichki hamda tashqi mazmun jipslashtiradi. Unda munosabat, ijtimoiy daraja va estetik qiymat bir-birini to'ldiradi. Ikki ovoz raqobati (muallif-qahramon) uslubiy-qadriyaviy mezonlarni yuzaga keltirib mental munosabat madaniyat o'rni egallaydi.

Natijalar. Demak, unda tasavvurlarni muayyan nuqtaga yig'ish, holatni harakatda ko'rsatish ustuvorlik kasb etadi. Rivoya o'rni meditatsiya egallashi zamirida doimo badiiy nutq tiplari uyg'unlashuvi vujudga keladi. Ma'no badiiy quvvat-hofizasini kuchaytiradigan tasvir yo'sini bir nechta ovoz hamkorligini shakllantiradi. Bu o'rinda so'z aynan obraz hamda ohangda yaxlitlashadi. She'r strukturasi intizomi esa matn badiiy salohiyatida namoyon bo'ladi. Tushunchaning yangi sifat darajasiga ko'tarilishi munozara hamda ziddiyatni bir-biriga bog'laydi. Mavjud rishta tafakkur kompleksida qism va butun munosabatini tartibga solishga yo'naltiriladi.

Ta'kidlash kerakki, lirikada ma'no badiiy kommunikatsiyani tasdiqlaydi. Ovoz, ohang, marom, so'z va g'oya ong dialogizatsiyasini tavsiflaydi. Vaziyat, holat, manzara yoki nutq tipi hissiy idrok aloqasini hosil qiladi. Unda muallif shaxsiyati va kitobxon saviyasi jiddiy tafovutlanadi. Sharh va adabiy talqin muloqot ko'p qatlamligini ko'rsatadi. Aynan bilish, anglash hamda his qilish semantik sathda amalga oshadi. Shu ma'noda, mazmun poetik g'oya tarqoqligini estetik mezonlarda mutanosiblashtirishga xizmat qiladi. She'riyatdagi muloqot jarayoni ifoda va bayon o'zaro mutanosiblashuviga olib

keladi. Unda badiiy soʻz qonuniyati hamda hayotiy mezonlar birlashadi. Zero, aynan adabiy kompozitsiyani yuzaga keltiruvchi ikki ustun – uslub va maʼno tigʻizligi ham munosabatli nutqdan vujudga keladi.

Muhokama. Lirikada nutqiy malaka va rivoya usuli yaxlitligi muntazam asosiy nuqtaga koʻchadi. Aniqrogʻi, soʻz va ifoda, tasvir va tasavvur muqobilligi badiiy kommunikatsiyani hosil qiladi. Unda dialog ongning oʻziga xos qatlami boʻlib tahlil jarayonini boshqargan holda unda ijtimoiy yuk oʻrini egallaydigan estetik qiymatda poetik gʻoya aks etadi. Gʻoyaviy mazmun matn intizomida oʻz maromiga yetadi. Adekvat shaklda qayta idroklangan mohiyat maqsadga yoʻnaltirilganlik darajasi bilan izohlanadi. Unda konstruksiya hissiy idrokka taʼsir oʻtkazib tasavvurdagi keskin psixologik holat dunyoqarash ziddiyatlarini namoyish etadi. Shu maʼnoda, qahramon va mavjud voqelik muloqoti muntazam bir-biriga taʼsir oʻtkazadi. Mazkur holatda shaxsiyat toʻla ijtimoiylashadi. Zero, hayotning estetik idroki nazmda ruhiy holat va tuygʻularni namoyon qilishga xizmat qiladi:

Unga bari birday hayot va oʻlim,
Goʻyoki kekxa chol soʻngini oʻylar.
Va lekin silkitib qahrabo qoʻlin,
Koʻrganin-bilganin birma-bir soʻylar.
Bir hikmat oʻqiyman xazonlarda men:
“Yashagin-u, biroq yaproq boʻlma sen” [6:64].

Sheʼrda inson va tabiat, hayot va ideal oʻrtasidagi rishta ritorik munosabat silsilasida ochib beriladi. Aslida tasdiq-inkor kategoriyasi poetik murojaat sathini belgilaydi (“Yashagin-u, biroq yaproq boʻlma sen”). Ahamiyat bersak, bu yerda hukm-xulosa keskin, reallikka nisbatan zalvorli. Mantiqiy taʼkid (biroq) esa mushohada salmogʻini yanada oshiradi. Muallif tafsilotda qiyoslash hosil qiladi. Ifodaning tabiiy hamda taʼsirchan tasviri falsafiy umumlashma uchun vosita vazifasini bajaradi. Lirik qahramon kashf etgan hayotiy hikmat kitobxon gʻashiga tegmaydi. Aksincha, chin koʻngildan chiqqan dil rozi oʻquvchini ishontiradi. Ortiqcha tafsilsiz yaratilgan holat chizgisi aniq, loʻnda va yorqin hissiyotni uygʻotadi.

Hayot haqiqatidan saboq olish, ruhiy dard quvvat-hofizasini koʻrsatishga intilish bir tomonlama dialog oʻziga xosligini taʼminlaydi. Ohang vazminligi va musiqiy ritm badiiy nutq uslubini yuzaga keltiradi. Tabiatning rangin qirralaridan hayotiy hikmat kashf qilish, nozik kuzatish va jonli mushohadani bir-biriga payvandlash faqat shoir ijodiy fenomeniga xos fazilatni taqdim etadi.

“Lirik asarda nutqning emotsionalligi koʻproq lirik qahramonning konkret paytdagi (bu turga mansub asarda badiiy vaqtning juda qisqaligi, “hozir” bilan belgilanishini eʼtiborga olish zarur) kayfiyati, holati, kechinmalari bilan bogʻliq” [11:244] tarzda namoyon boʻladi. Mazkur holatda, birinchidan, hissiy idrok sezgisi subyekt tayanchini taʼminlaydi, ikkinchidan, ifodada aniqlik va mavhumlik bir-biriga oʻtib turishiga zamin hozirlaydi. Uchinchidan, badiiy nutqda tasvir miqyosi nominativ birlikdan semantik sathga koʻchadi. Ohang, marom hamda munosabat mantiqiy izchilligi rivoya texnikasi strukturasi tubdan oʻzgartiradi. Tarqoqlik va davomiylik uning spesifik xususiyatini belgilaydi:

Qizargan lablarning titraddi bexos:
– Nahot boshimizga yomgʻir toʻkilsa?
– Ajablanma, dildor, bu zoʻr ehtiros,
Ajabmas, bulut ham erigan boʻlsa [7:49].

Badiiy nutqda hosil boʻladigan differentsiatsiya hodisasi uning mustaqil tashkiliy tizimi bilan bogʻlanadi. Tilimizdagi soʻz-gʻoya tanlovi ruhiy kechinma tadrijini markaziy nuqtaga birlashtiradi. Yuqoridagi badiiy matnda qoʻllanilgan tayanch nominativ birliklar (qizargan lablar, yomgʻir, bulut, zoʻr ehtiros) tasavvurni his qilishga yoʻl ochadi. Oʻzgaruvchan predikatsiya (yomgʻir-tuygʻu, bulut-kayfiyat) tasvir maʼnosining hosil boʻlishiga zamin hozirlaydi. Ifoda imkoniyatini ixchamlashtirishni dialog zimmasiga yuklagan muallif manzarani yaxlitlashtiradi. Bu oʻrinda muloqot jarayoni ruhiy holat davomiyligini anglatadi hamda tuygʻu va mushohada oʻzaro jipslashadi.

“Bizningcha, Abdulla Orif degan samimiy va betakror poetik hodisani u yashagan davr yaratmadi, bilʼaks bu fenomen chogʻdoshlarning ruhiy olami, tuygʻular tizimi va tafakkur tarziga kardinal taʼsir koʻrsatish orqali oʻz davrini yaratdi. Toʻgʻri, shoirning sheʼrlari ijtimoiy tuzumni oʻzgartirib yubormadi. Lekin bu yaratilgan odam ruhiyatiga xos asl jihatlarni sezdirish orqali odamni mafkuraning soxta qutqulariga berilib ketishdan saqlab qoldi” [4:656-657] – deya taʼkidlagan edi, adabiyotshunos Q.Yoʻldoshev. Shoir badiiy izlanishlari sheʼr va oʻquvchining teran munosabati asosiga quriladi. Ruhiy tahlil keskinligi bogʻlovchi rishta, poetik ifodadagi doimiy tasdiq-inkor-tasdiq tezisi bir-birini mantiqan toʻldirishga xizmat qiladi:

Dunyodan oʻtarkan ulugʻ bir daho,
Xudoga soʻnggi bor qildi iltijo:
– Mendan soʻng nomimni biror zuryodim
Pesh qilib yurmasa boʻldi, Iloho! [7:77].

Abdulla Oripovning mazkur sheʼrida dialoglashgan nutq teran oʻyga toldiradigan, falsafiy taxayyulga qurilgan tuygʻularni taqdim etadi. Tasvir samimiyati, hayotiy aqida urgʻusi, sodda va ravon rivoya yoʻsini bilan ajralib turadigan satrlarda tafsilotdan hukm-xulosa chiqarishga ehtiyoj seziladi. Inson hayotda hamma narsaga oʻz kuchi, iqtidori bilan erishmogʻi lozim. Iltijo, istak va ilinj qorishgan muloqotda maishiy holat va undan kelib chiqadigan oqibat xususida soʻz boradi. Tuygʻu hamda hayotiy aʼmol ichki munosabati badiiy nutq mohiyatini tavsiflaydi. Maʼlumki, inson aʼmolini uning amali tayin etadi. Oʻz-oʻzini taftish qilib yashagan daho tilagi pok nomiga dogʻ tushirmaslikdan iborat. Matnda ichki poetik ruh va hikmatomuz mantiq omuxtalashgan holda didaktik qatlamning teranlashuvi maʼno vositasida asoslanadi. Bir taraflama ritorik murojaat zahirida real turmushda uchraydigan maʼnaviy-axloqiy illat qoralanadi, mavjud vaziyatda “nom” tushunchasini oʻz maʼnosida tushunish joiz emas, konstrukt shaʼn, nufuz va amal yaxlitlashuvini taʼminlaydi. Negaki, aynan insoniylikni anglatuvchi yuqoridagi uchlik gʻoyat muhim omildir.

“Sanʼat asari borki, yaratuvchi (yozuvchi) bilan kitobxon (oʻquvchi) orasidagi munozara, bahs, muloqot sifatida paydo boʻladi. Sanʼat asarlari tabiatida kitobxon bilan munosabat jiddiy oʻrin egallaydi. Qaysiki badiiy asarda kitobxon masalasiga jiddiy eʼtibor berilgan boʻlsa, oʻsha asar uzoq yashaydi. Boshqacha aytganda, badiiy asar muallifi kitobxon imkoniyatlari toʻla namoyon boʻlishi uchun ruhiy-maʼnaviy makonni keng, zamonni uzoq olgan boʻlsa, oʻsha asarning ontologik tayanchi (uzoq yashash kayfiyati) mustahkam boʻladi. Ijodkor asar yaratar ekan, shuuriy va gʻayrishuuriy ravishda, ruhiy-maʼnaviy imkoniyatlarini toʻliq safarbar etgan holda harakat qiladi” [8:93-94].

Ta'kidlash kerakki, ruhiy munosabat muvozanati badiiy nutq tabiatini belgilaydi. Nisbatan yuksak talabchanlik har ikki tomonda ham to'liq saqlanadi. Shoir so'z yordamida g'oyani shakllantirish va tasvirlashga intiladi. Ifoda imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijodiy tasavvurni yig'ish mohiyatan badiiy mahorat va estetik idrok malakasi takomilida birlashadi.

Uchrashdi jahonning ikki zo'r piri,

Ularni qiynardi dunyoning siri.

Biri yig'lab derdi: – Uni tushundim,

– Tushunmadim, - deya yig'lardi biri [7:79].

Odamzod paydo bo'libdiki, “mavjudlik jumbog'i” mohiyatini anglashga urinadi. Mazkur dolzarb muammo barchani birdek qiziqtirib kelgan. To'rtlikda tazodiy munosabat ustuvor: “jahonning ikki zo'r piri” borliq sir-sinoatini idrok etishga intiladi, biroq “dunyoning siri” murakkab va ziddiyatlarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Tasdiq hamda inkor kategoriyasi bir-biriga hamohang tushunchalar, samimiy iqror, olam va odamni anglash yo'lidagi dovonlarni birlashtiradi. Tabiatan “mavjudlik jumbog'i”ni his qilish insonga o'zligini anglashga yordam beradi. Falsafa va mantiq qorishuvi asl ma'noni tadqiq etishga zamin hozirlagan holda tahlil va talqin malakasini tenglashtiradi.

“Lirikada muallif va qahramon munosabatini qadriyaviy mezonlar belgilab beradi. Materiya va uning estetik qiymati baholash hamda baholanish kompleksini vujudga keltiradi, ushbu mexanizm dialogni ong bilan payvandlaydi” [5:122]. Mazkur holat birinchidan, badiiy nutq amaliy sayqallanishini tafovutlaydi, ikkinchidan, rivoya texnikasining funksional ahamiyatini oshiradi, uchinchidan, muallif va qahramon pozitsiyasiga oydinlik kiritadi, to'rtinchidan, moddiylashgan tushuncha estetik qiymatini baholashga zamin hozirlaydi. Nominativ tasvir hamda semantik ifoda esa bir-birini mantiqan to'ldiradi. Shu ma'noda ijod falsafasi asosini ma'no qirralari tanlovi hamda unga yuklatiladigan estetik qiymat zalvori belgilab beradi.

Aslida “Adabiyot falsafasi So'z, uning old-ort va qa'ridagi kichik va katta olamlar falsafasidir. Badiiy adabiyot ko'zi bilan qaralsa, muayyan asardagi oddiy, tuyqus ko'zga tashlanmaydigan jumla, qahramonga berilgan tavsif katta ma'no yuki tashib, xuddi sehrgar tayoqchasidek badiiy asarga yangi qiyofa kasb etishi mumkin” [9: 9]. Mazkur iqtibosda bir nechta xususiyat alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash kerakki, badiiy adabiyot so'z yordamida falsafa hosil qilgan holda yangi voqelik o'lchami bo'lgan hodisa estetik quvvat-hofizasidan oziq oladi. Shuningdek, ma'no – g'oya, matn va mantiq aloqasini mustahkamlaydi:

Sahobalar dedi: – Yo Rasululloh,

Bu novda jismida yashirin qay sir?

Rasul javob qildi: – U endi, valloh,

Go'rning azobini yengillatgaydir [7:106].

“Shafqat va inoyat hissin” tuygan sahobalar bir qabr qoshida tilovat qilib, yashil novdani qadab qo'rgan Muhammad Alayhissalom amalidan biroq ajablanishadi. Hayot nafasi ufurib turgan “yashil novda” aslida tiriklik timsoli. Unda Haq “ilohiy asrori”, “zo'r qudrati” zuhur topadi. Muallif “hayot o'zi bergan” kuch-quvvat faoliyat asosini tashkil etishiga urg'u beradi. Rang bilan bog'liq (yashil) ifoda nisbiy mustaqillikka asoslanadi. “Go'r azobi” esa inson xatti-harakatlari sarhisobiga ishora qiladi. Tafsilot

odamzod ibtidosi va intihosini e'tiqod jihatdan baholashga zamin yaratadi.

“San'at asarining badiiy mukammalligi, umrboqiyligi, maftunkorligi talay adabiy-estetik omillarga bog'liq. O'quvchi ko'ngilga zavq beradigan, inson olami, voqelik ko'lami, his-tuyg'ular juda tiniq tasvirlangan, ayni chog'da, umuminsoniy muammolarni betakror uslubda, o'ziga xos san'at tilida obrazli talqin etgan badiiy asar qanday janr yoki ijodiy metodka yozilganidan qat'i nazar eng sara hisoblanadi” [1:36]. Ong va dunyoqarash silsilasida qayta idrok qilinadigan tuyg'u va mohiyat o'ziga xosligini iste'dod darajasi belgilaydi. Negaki, ijod falsafasi tushunchani his qilish va ohangni ilg'ashni maqsad qiladi. Shu ma'noda badiiy usul rang-barangligi hamda asar mohiyatini qabul qilish asnosida tasvir ruhiyati anglashiladi.

Dunyoga yashay deb keladi Inson,

Yashamoq uchun axtarar imkon.

Sen-ku bu dunyodan to'ygan ekansan,

Boshqalarni nega qiynaysan, nodon?! [7:108].

Mazkur adabiy talqinda darak gap va ritorik munosabat bir-biriga qorishib ketadi. “Inson” omili va “imkoniyat” munosabati muayyan axborot zalvorini yaxlit tasavvurga birlashtiradi. “Dunyoga yashay deb keladi Inson, Yashamoq uchun axtarar imkon” stilistik bayon zamirida paradoks holat mavjud. Zero, bir tomondan, yaxshi yashash – har kimning istagi, boshqa tomondan esa istak va imkon hamisha bir-biriga mos kelavermaydi. “Nodon” istak yo'lidagi eng katta to'siq, kurash shaxs a'molini belgilaydigan yetakchi mezon sanaladi. Murojaat keskinligi esa voqelikni estetik baholash taomillarini vujudga keltiradi. Qolaversa, adabiy talqinda mantiqiy izchil rivoya ustuvorlik kasb etgan holda tasvir, tahlil va talqin o'rindoshligi asosiy o'ringa chiqadi. Shu ma'noda “Boshqalarni nega qiynaysan, nodon” satri mohiyatida ijodiy pozitsiya anglashiladi.

“Olam manzarasi, erkin tanlov mas'uliyati sifatida dialog va monolog bir-biriga o'tib turishini ta'minlaydi. Munozara tabiati ikki tushuncha munosabatini birlashtiradi. Unda estetik talqin axloqiy o'lcham hosil qiladi. Aynan badiiylik modusi so'z – g'oya – matn aloqasini o'zgartiradi. Bilim, tasdiq yoki inkor aslida badiiy kommunikatsiya qirralari, munosabat taqvimini badiiy nutq spesifikasiyasi belgilaydi” [10:77].

Shunday ekan, poetik nutq ijod solnomasini belgilash bilan birga muallif va o'zga bir ovoz (suhbatdosh) dinamikasini jipslashtiradi. Asar mohiyatidan anglashiladigan manfaatdorlik rivoya texnikasi impulsini belgilagan holda sharh, izoh va tahlil voqelikni tadqiq etishga yo'naltiradi.

Aql deydi:

She'ringdan ne naf,

Mashqlarningdan lazzat olar kim?

Yo'q, der menga, o'ltirma o'ylab,

She'r yoz, deydi nodon yuragim [2:46].

Erkin Vohidovning “Yurak va aql” she'ri kontrast belgilarga asoslangan. Bir-biriga zid tushunchalar, odatda, tasvirni yorqinlashtirib mohiyatni aniqlashtiradi. Tazod zamiridagi munosabat harakat-holat uzluksizligini ta'minlaydi. Shu boisdan aql “she'ringdan ne naf” – deya iddao etadi, “nodon yurak” esa aqlni inkor qiladi. Sovuqqon idrok hamisha aql bilan ish yuritishni tavsiya qiladi. Ko'ngil amriga esa buyruq berib bo'lmaydi. Shu tariqa

hayotiy ziddiyatlar falsafiy teranligini umumlashtirgan shoir bahs-munozarani keskinlashtiradi. Mazkur lavhada soʻz – gʻoya – matn tizimi ustuvorlashgan.

Har qanday dunyoqarash adabiy talqinni yangicha munosabat, oʻzgacha ohang hamda nafis boʻyoqdorlikka yoʻnaltiradi. Tasdiq – inkor – tasdiq shakli oʻziga xoslikda maromiga yetadi. Monologda ham taʼkid, ham eʼtirof, ham tasdiq aks etishini inobatga olsak, ijod falsafasida mantiq mohiyatni tavsiflashi ayon boʻladi. Shoir shaxsiyatida ijtimoiylashadigan mohiyat aslida munozara tabiatiga ega boʻladi. Unda tahlil tasavvur oqimiga aniqlik kiritgan holda tasvir ruhiyati ifoda uslubi shakllanishiga imkon hozirlaydi.

Xulosa. A.Oripov va E.Vohidovlarning kuzatilgan sheʼrlarida dialog muhim estetik omil sifatida badiiy konsepsiyani oydinlashtirish vazifasini oʻtaydi. Tasvir predmeti va unga xos adabiy talqin dialogik mohiyatni anglatadi. Badiiy nutq shakli tasavvur va ifoda bir-biriga tutashgan holda shoir iqtidorining shu ikki tushunchaga uygʻunlik bagʻishlashi bilan oʻlchanadi. Matn – hayotiy aʼmol estetik darajasini tartibga soladigan tizim, dialog

uning tayanch markazi vazifasini bajaradi. Zamon, makon, imkon va maʼno sathlari muhokama kengligini taʼminlaydi, estetik idrok esa muammo mohiyatini yanada oydinlashtiradi.

Umuman, sanʼatda ong, shu jumladan, badiiy nutq shakllari voqelikni poetik tadqiq etishning asosiy vositasi sanaladi. Unda monolog, dialog va polilog badiiy vazifadoshligi poetik strukturani hosil qiladi. Axborot hajmini kuzatish va mushohada nisbati asosida adabiy voqelikni baholash munosabat ottenkasini birlamchi oʻringa chiqaradi. Soʻz va ifoda esa badiiy talqin uslubini belgilaydi. Tushunchalar mutanosibligi gʻoya zalvorini anglashga zamin hozirlaydi. Negaki, badiiy tafakkurda tushuncha – soʻz – gʻoya – ifoda – matn bir-birini toʻldirgan holda tartibga soladi hamda estetik qiymat kasb etadi. Koʻrinadiki, sheʼriyatdagi dialoglarda oʻzaro aloqada nozik kuzatish hamda jonli mushohada imkoniyatlari ortib, ixcham shakl hosil boʻladi. Bu holat birinchidan, ruhiy kechinma teranligini taʼminlasa, ikkinchidan, tasvir va ifoda uygʻunligiga zamin hozirlaydi.

Adabiyotlar

1. Баҳодир Карим. Рухият алифбоси. – Тошкент: «Адабиёт ва санъат», 2016.
2. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: «Шарқ», 2016.
3. Гуткина Э.И. Лирическое творчество как единство диалога и монолога. // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. – Нижний Новгород, 2013, №1.
4. Ёўлдошев Қ. Очқич сўз. – Тошкент: «Тафаккур», 2019.
5. Кристофер Кодуэлл. Иллюзия и действительность. – Москва: «Прогресс», 1969.
6. Орипов А. Рухим. – Тошкент: «Ғафур Ғулом» номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
7. Орипов А. Адолат кўзгуси. – Тошкент: «Адолат», 2015.
8. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: «Шарқ», 2007.
9. Сувон Мели. Сўзу сўз. – Тошкент: «Шарқ», 2017.
10. Тюпа В.И. Анализ художественного текста. – Москва: «Академия», 2009.
11. Қуროнов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: «Академнашр», 2018.